

JAMIYATDAGI SOTSIAL QONUNLAR (SOTSILOGIK TAHLIL)

Mirzoidova Anora Mirshoxid qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti sotsiologiya yo'nalishi talabasi
athaestikgirl27@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyat taraqqiyoti va undagi ijtimoiy jarayonlarning muntazamliklarini belgilovchi sotsial qonunlarning mazmuni, sotsiolog olimlar qarashlari va ularning nazariyalari asosida sotsial qonun turlari va amal qilish mexanizmlari yoritilgan. Sotsial qonunlarning jamiyat hayotidagi o'рни, ularning umumsotsiologik va maxsus sotsiologik ko'rinishlari, shuningdek, ijtimoiy tizimlar barqarorligi va o'zgarishlarini tushuntirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada sotsial qonunlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, ularni o'rganish metodlari hamda zamonaviy sotsiologiyada ularning qo'llanish doirasi ilmiy asosda ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: sotsial qonunlar, ijtimoiy hadisalar, umumsotsiologik qonunlar, maxsus sotsiologik qonunlar, demografik qonunlar, ijtimoiy tizim.

KIRISH

Jamiyat murakkab ijtimoiy tizim bo'lib, unda sodir bo'ladigan jarayon va hodisalar tasodifiy emas, balki ma'lum qonuniyatlarga asoslanadi. Sotsiologiya fani ana shu qonuniyatlarni aniqlash, ularning mohiyatini tushuntirish va jamiyat taraqqiyotidagi rolini izohlash bilan shug'ullanadi. Sotsial qonunlar – bu jamiyat hayotida takrorlanadigan, barqaror, obyektiv mavjud bo'lgan o'zaro bog'liqliklar bo'lib, ular ijtimoiy jarayonlarning rivoj yo'nalishini belgilaydi. Sotsial qonun – bu jamiyatda ijtimoiy hadisalar va jarayonlarning doimiy, tizimli, va qonuniyatli bog'liqligini ifodalovchi ijtimoiy qonuniyatdir. U shaxsiy xatti-harakatlardan mustaqil bo'lib, jamiyatning barcha a'zolariga ta'sir qiladi.

Xususiyatlari esa quyidagilardan iborat:

- Ijtimoiy hadisalar o'rtasidagi doimiy bog'liqlikni ifodalaydi;
- Shaxsiy istak va harakatdan mustaqil bo'ladi;
- Empirik kuzatuv va ilmiy tahlil orqali aniqlanadi.⁷⁶

Sotsial qonunlar jamiyatda quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

1. Ijtimoiy tartibni ta'minlash – jamiyatdagi xatti-harakatlar va jarayonlarni boshqarish, nizolarni kamaytirish.
2. Jamiyat rivojini tushunishga yordam berish – sotsial qonuniyatlarni aniqlash orqali ijtimoiy o'zgarishlarni oldindan ko'rish mumkin.
3. Ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish – sotsial normalar va qonunlar jamiyat a'zolari o'rtasida barqaror munosabatlarni yaratadi.

⁷⁶ Durkheim, E. Suicide, 1897; Weber, M. Economy and Society, 1922.

4. Ilmiy tadqiqot uchun asos yaratish – sotsial hodisalarni sistematik ravishda o'rganish va tahlil qilish imkonini beradi.

Sotsial qonunlarning turlari:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy qonunlar – ishlab chiqarish, mehnat, taqsimot va ijtimoiy tabaqalashuv jarayonlariga taalluqli qonuniyatlar.

2. Ijtimoiy-madaniy qonunlar – odat, urf-odat, madaniy qadriyatlar va normativ xatti-harakatlarga bog'liq qonuniyatlar.

3. Ijtimoiy-huquqiy qonunlar – davlat va jamiyat o'rtasidagi tartibni belgilovchi, huquqiy me'yorlar asosidagi qonuniyatlar.

4. Ijtimoiy-funksional qonunlar – jamiyat tizimining barqarorligini ta'minlaydigan o'zaro bog'liqliklar.⁷⁷

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Emil Durkgeym sotsial qonunlarni ijtimoiy faktlar sifatida ko'radi. U ijtimoiy faktlarni shaxsiy xatti-harakatlardan mustaqil bo'lgan va jamiyatga ta'sir qiluvchi kuchlar sifatida ta'riflaydi. U “sotsial normalar” va “sotsial me'yorlar” jamiyatning barqarorligini ta'minlashda asosiy vosita ekanligini ta'kidlaydi. Durkgeym ijtimoiy qonunlarni empirik usul bilan tahlil qiladi⁷⁸. “Suicide” (1897) asarida o'zining sotsial faktlar nazariyasini qo'llab, turli ijtimoiy guruhlarda o'z-o'zini o'ldirish holatlarining statistik tahlilini berdi.

U ijtimoiy qonunlarni aniqlashda statistik metodologiyani qo'llagan birinchi sotsiolog hisoblanadi.⁷⁹

Max Weber sotsial qonunlarni tushuntirishda “verstehen” (tushunish) metodidan foydalanadi. U ijtimoiy hodisalarni faqat tashqi kuzatuv orqali emas, balki insonlarning maqsad va niyatlarini tahlil qilish orqali tushunish mumkin, deb hisoblaydi. Weber “The Protestant Ethic and the Spirit of Capitalism” (1905) asarida ijtimoiy qonun va normalarni iqtisodiy va diniy jarayonlar bilan bog'laydi. U sotsiologik metod sifatida interpretativ tahlilni ishlab chiqqan, ya'ni ijtimoiy xatti-harakatlar sabablarini tushunish.⁸⁰

Karl Marks sotsial qonunlarni iqtisodiy deterministik nuqtai nazardan tushuntiradi. U tarixiy materializm asosida ijtimoiy qonunlarni ishlab chiqadi: jamiyatni ishlab chiqarish vositalari va munosabatlari belgilaydi. “Das Kapital” (1867) asarida iqtisodiy qonuniyatlar orqali jamiyatdagi tengsizlik va ziddiyatlarni tahlil qiladi. Marks sotsial qonunlarni ijtimoiy o'zgarishlarni oldindan bashorat qilish vositasi sifatida ko'rgan.⁸¹

Talcott Parsons sotsial qonunlarni tizimli yondashuv orqali izohlaydi. U jamiyatni o'zaro bog'langan tizimlar sifatida ko'radi va sotsial normalar tizimning barqarorligini ta'minlaydi, deb hisoblaydi. Parsons “The Social System” (1951) asarida ijtimoiy

⁷⁷ Parsons, T. The Social System, 1951; Durkheim, E. The Division of Labor in Society, 1893.

⁷⁸ Durkheim, E. (1897). Suicide: A Study in Sociology. Free Press, 1951.

⁷⁹ Giddens, A. (1982). Durkheim on Politics and the State. Cambridge University Press.

⁸⁰ Weber, M. (1905). The Protestant Ethic and the Spirit of Capitalism. Routledge, 2001.

⁸¹ Marx, K. (1867). Das Kapital. Penguin Classics, 1990.

qonunlarni tizim nuqtai nazaridan tahlil qiladi. U sotsial qonunlar va me'yorlarni jamiyatning funktsional barqarorligini ta'minlovchi elementlar sifatida ko'rsatadi.⁸²

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, kishilar moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida bir birlari bilan turli munosabat va aloqaga kirishadilar. Sirtidan qaraganda bu munosabat va aloqalar yuzaki, vaqtinchalik, tasodifiydek tuyuladi. Lekin ular ma'lum sotsial tizimga xos qonun va qonuniyatlarga bo'ysunadi. Unda har qanday obyektiv va subyektiv voqeliklarning holat va amaliy harakat asoslari ochib beriladi. Qonun – olamdagi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy va takrorlanib turuvchi o'zaro aloqalari va munosabatlarning namoyon bo'lishidir.

Sotsiologik qonunlar kishilar faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ular o'rtasidagi hayotiy muhim va zaruriy aloqalar hamda ularning ijtimoiy xatti-harakatlari o'rtasidagi munosabatlarda namoyon bo'ladi. Bu munosabatlar xalqlar, millatlar, sinflar, sotsial-etnik va sotsial-hududiy birliklar, shahar va qishloq aholisi, shuningdek jamiyat va sotsial institutlar, jamiyat va sotsial tashkilotlar, jamiyat va mehnat jamoalari, jamiyat va sotsial guruhlar, jamiyat va oila, jamiyat va shaxs o'rtasidagi aloqalarda o'z aksini topadi. Sotsial aloqalarga kirishadigan individlar esa, kishilar sotsial birliklarning kundalik faoliyati o'rtasidagi munosabatlarini belgilab beradi.

Muhokama. Sotsiologik qonunlar kishilar ijtimoiy faoliyatlarining barcha sohalorida namoyon bo'lib, birinchi navbatda, ularning moddiy ishlab chiqarish faoliyatida yuzaga keladi. Jamiyatning iqtisodiy munosabatlari inson va jamiyat rivojlanishini, ular faoliyati ko'rsatishining mazmun va mohiyatini aniqlab beradi. O'z navbatida inson jamiyatdagi o'z yo'nalishlarini belgilab oladi. Shu bois sotsiologik qonunlar inson ijtimoiy faoliyatining qonunlari hisoblanadi. Demak, ular o'z hayotlarini sotsiologik qonunlarga mos holda tashkil etadilar. Natijada esa quyidagi umumiy fikrga kelish mumkin:

- Umumsotsiologik qonunlar – jamiyat miqyosida barcha sotsial tizimda bir xil amal qiladigan qonunlarga aytiladi.

- Maxsus sotsiologik qonunlar – bu qonunlar esa muayyan ijtimoiy soha, institut yoki jarayon doirasida amal qiladi, Masalan, siyosat, ta'lim, oila iqtisodiy hayot kabi sohalarda.

Sotsiologik qonunlarning mohiyatini chuqur anglash, ularning amal qilish mexanizmlarini bilish, jamiyat hodisalarini har taraflama tahlil qilish, o'rganish, qolaversa sotsial hodisa va jarayonlarni boshqarishda katta ahamiyatga egadir. Aynan sotsiologik qonunlar sotsiologiya faniga ilmiylik bag'ishlaydi. Ya'ni shaxsning tartibsiz hodisalar bilan bog'liq xatti-harakatlarini ilmiy asosda oldindan aytish mumkin emas. Biroq sotsial qonunlarga asoslangan ilmiy tadqiqot natijalariga ko'ra, sotsiologik tadqiqotlarning empirik metodlariga tayangan holda jamiyatda sodir bo'la-digan sotsial hodisa va jarayonlarning qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi va qanday natijalar bilan tugashi muayyan darajada aniqalshtirish mumkin bo'ladi.

⁸² Parsons, T. (1951). The Social System. Free Press.

Natijalar. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sotsial qonunlar ijtimoiy tizimlar o'rtasida o'zaro ta'sirni boshqaradi, aholi xulq-atvori, ijtimoiy guruhlar manfaatlari va ijtimoiy institutlar faoliyatini uyg'unlashtiradi. Bundan tashqari, sotsial jarayonlarning murakkablashuvi, urbanizatsiya, texnologik taraqqiyot va kommunikatsiya imkoniyatlarining kengayishi ijtimoiy qonuniyatlarning yangi ko'rinishlarda namoyon bo'lishiga olib kelayotgani aniqlandi. Amaliy tahlillar natijasida sotsial qonunlar ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, jamiyatda kelajakni oldindan prognoz qilish va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish uchun zarurligi tasdiqlandi. Tadqiqot jamiyat taraqqiyotiga ta'sir etuvchi omillarni chuqur anglash va sotsiologik tahlil usullarini amaliy qo'llash zarurligini ko'rsatdi.⁸³

Xulosa. Dunyo sotsiologiyasida olib borilgan nazariy va empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sotsial qonunlar jamiyatning asosiy tarkibiy tuzilmasi, ijtimoiy jarayonlar dinamikasi hamda ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi munosabatlar tizimini izohlashda muhim metodologik vosita hisoblanadi. Sotsial qonunlar jamiyat taraqqiyotida yuzaga keladigan jarayonlarning tasodifiy emas, balki muayyan qonuniyatlarga bo'ysunishini asoslaydi. Ular ijtimoiy tizimlarning barqaror faoliyati, jamiyatning o'zini-o'zi boshqarish qobiliyati hisoblanadi.

Bundan tashqari ijtimoiy institutlarning uyg'un ishlashida asosiy omillardan biridir. Umuman olganda, sotsial qonunlar jamiyat taraqqiyotini tushunish, ijtimoiy muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy yondashuvlarni shakllantirishda asosiy nazariy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot sotsial qonunlarning ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni va ularning amaliy ahamiyatini yoritib berdi.

Jamiyatdagi sotsial qonunlar ijtimoiy munosabatlar va jarayonlarni tartibga soluvchi fundamental printsiplarni tashkil etadi. Ular insonlarning ijtimoiy harakatlarini boshqaradi, ijtimoiy adolat va barqarorlikni ta'minlaydi hamda jamiyatning rivojlanish yo'lini belgilaydi.

Sotsial qonunlar o'zgaruvchan va kontekstga bog'liq bo'lishiga qaramay, ularning asosiy vazifasi – ijtimoiy tizimning uyg'unligini saqlashdir. Shu bois, jamiyatdagi har qanday ijtimoiy jarayonni chuqur tahlil qilishda sotsial qonunlarni inobatga olish zarur, chunki ular jamiyatning barqaror rivojlanishi va ijtimoiy muvozanatni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Jamiyatdagi sotsial qonunlar ijtimoiy hayotning barqarorligini ta'minlovchi asosiy printsiplardir. Ular insonlarning xulq-atvori va ijtimoiy rollarini tartibga soladi, ijtimoiy adolat va tenglikni mustahkamlaydi hamda konfliktlarni oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

Har bir jamiyatda sotsial qonunlar madaniy va tarixiy sharoitga bog'liq shakllanadi, biroq ularning asosiy vazifasi ijtimoiy tizimning uyg'unligini saqlashdir. Shu sababli, ularni ilmiy tahlil qilish jamiyatni chuqur tushunish va ijtimoiy siyosatni

⁸³ Macionis, J. (2018). Sociology. Pearson Education

samarali shakllantirish imkonini beradi, bu esa barqaror rivojlanish va farovon jamiyat yaratishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Durkheim, E. Suicide, 1897; Weber, M. Economy and Society, 1922.
2. Parsons, T. The Social System, 1951; Durkheim, E. The Division of Labor in Society, 1893.
3. Durkheim, E. (1897). Suicide: A Study in Sociology. Free Press, 1951.
4. Giddens, A. (1982). Durkheim on Politics and the State. Cambridge University Press.
5. Weber, M. (1905). The Protestant Ethic and the Spirit of Capitalism. Routledge, 2001.
6. Marx, K. (1867). Das Kapital. Penguin Classics, 1990.
7. Parsons, T. (1951). The Social System. Free Press.
8. Macionis, J. (2018). Sociology. Pearson Education.